

GO'RI AMIR MAQBARASI ARXITEKTURASI

*Magistr: Tojiyeva Orzugul Ziyatillayevna**TAQU**+998917738020 orzugultojiyeva0@gmail.com**Komiljonova Muslimabonu Jaloliddin qizi**TAQU 2-kurs talabasi**+998917955544 mkomiljonovaa@gmail.com***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received: 01.02.2026**Revised: 02.02.2026**Accepted: 03.02.2026***KALIT SO'ZLAR:***arxitektura, maqbara,
qabir, gumbaz,, Amir
Temur, peshtoq,
majmua, marmar, arab
yozuvlar.*

Go'ri Amir yoki Amir Temur maqbarasi (15-asr boshi – 1405-yil) – Samarqanddagi me'moriy yodgorlik. Xalq orasida Go'ri Amir yoki Go'ri Mir (Mir Sayyid Baraka) deb nomlanib kelinadi. Maqbaraga temuriylar sulolasiga mansub kishilar (Amir Temur, uning piri Mir Sayyid Baraka o'g'illari Umarshayx, Mironshoh va Shoxruh, nabiralari Muhammad Sulton, Ulug'bek va boshqalar) dafn etilgan. Boburning ta'kidlashicha, dastlab Temurning nabirasi Muhammad Sulton Mirzo Samarqand qal'asi yaqinida Toshqo'rg'on-tomonda Madrasa qurdirgan. Muhammad Sulton halok b'lgach (1403), Amir Temur uning xotirasiga maqbara qurish haqida farmon beradi. Maqbara Madrasa hovlisining to'riga bunyod etilgan

Kirish: Maqbaralar Sharq me'morchiligining eng yuksak na'munalaridan hisoblanadi. Bu binolarni bugungi kun talabi asosida chuqur o'rganish tahlil qilish va shu asosida ilmiy xulosalar chiqarishni talab etadi.

Asosiy qism: Samarqandda joylashgan Go'ri Amir O'rta O'rta Osiyo me'morchiligining noyob asari sifatida e'tirof etiladi. Markaziy Osiyo me'morchiligining noyob asari sifatida


e'tirof etilgan Amir Temur maqbarasing qurilishi 1403-yilda boshlanib, 1424-yilda tugatilgan. Maqbara qurilishi Amir Temur buyru'giga asosan 1403-yilda boshlanib, Mirzo Ulug'bek davrida tugallangan hamda temuriylar xilxonasiga aylantirilgan.

Maqbara, o'rta asr Samarqandining janubiy-sharqiy qismida, Temurning nabirasi Muhammad Sulton tomonidan, XIV asrning oxirida bino qildirgan majmua qoshida tiklangan.

Muhammad Sulton 1403-yilda Kichik Osiyo qirg'oqlariga uzoq safardan qaytayotib, to'satdan vafot etadi. Shahzodaning jasadi Samarqandga keltirilib, ansamblning janubiy peshtoqidagi ayvon orqasidagi daxmaga dafn etiladi. Amir Temur shahzoda nomi bilan atalgan maqbara qurishni buyurdi. Shundan so'ng, kulbada sakkiz burchakli bino quriladi.

Tarixchi Sho'rqa Sharafiddin Ali Yazdiy binoni „baland gumbazi osmondek, devorlarining pastki qismi marmardan yasalgan, oltin va lapis lazuli bilan bezatilgan“ deb ta'riflaydi. Ammo Amir Temur maqbara qurilishini bu bilan tugatmaydi. U 1405-yilda erta vafot etgan va Muhammad Sulton jasadi yoniga dafn etilgan. Amir Temur vafotidan keyin taxt uchun o'zaro urushlar boshlanib, maqbara qurilishiga to'sqinlik qildi.

Mamlakat faqat 1409-yilda tinchlandi. Amir Temurning o'g'li Shohruh Mirzo Hirotni poytaxt qildi. Mirzo Ulug'bek Samarqandga hokim etib tayinlanadi. U mamlakatda madaniyat va qurilish ishlarini rivojlantirib yuboradi. Mirzo Ulug'bek buyuk bobosiga hurmat yuzasidan sakkizyoqli maqbarani temuriylar avlodi dafn qilinadigan maqbaraga aylantiradi. 1449-yilda siyosiy inqiroz natijasida Mirzo Ulug'bek vahshiylarcha o'ldirildi. Buyuk astronomning jasadi Go'ri Amir maqbarasiga dafn etiladi.



Muhammad Sulton madrasasi va xonqohi unutilganligi sababli Samarqand yodgorliklarini birinchi tadqiqotchilar uzoq vaqt davomida madrasa va xonqaning joylashishini asrning o'rtalaridan boshlab qadimiy yodgorliklarni chuqur va har tomonlama o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi. Arxeologik qazishmalar natijasida vayron bo'lgan binolarning devor va poydevor qoldiqlari topildi. Arxitektura tadqiqot ishlari binoning ayrim qismlarining o'lchamlarini, dizayni va pardoqlashini

chizishda aniqlash imkonini berdi. Yig'ilgan materiallar rejalashtirilgan restavratsiya ishlari uchun asos sifatida ishlatilgan. Butunlay vayron bo'lgan hovli devorlari tiklandi. Natijada arxitektura majmuasi binolarining qanday tartibda qulashini aniqlash mumkin bo'ldi.

Madrasaning burchaklarida gumbazli darsxonalar bo'lgan. Maqbara devorlariga zangori, havo rang va oq sirli koshinlar qoplangan, bu koshinlar geometrik shaklda terilib, arabcha xat bitilib, ustalik bilan ishlangan. Me'mor bir-biriga mos shakllardan foydalanib, binolarning katta sathlarini mohirlik bilan bezagan.



Maqbaraning tashqi tomoni bunyod qilinganda uning gumbaziga katta ahamiyat berilgan. Gumbaz ostki qismining aylanasi 15 metr, balandligi 12,5 metr bo'lsada, uning og'irligi sezilmaydi. Gumbazning rang-barang qilib ishlanishi katta ahamiyatga ega. ishlatilgani uchun bu rang gumbazning egri chiziqli qobirg'alarida tovlanib, quyoshda charaqlab, guyo osmonga qadalib turadi. Gumbazning usti sirli koshinlar bilan qoplangan. Sharafalarida ham shunday

koshinlardan hajmi bir-biriga mos qilib ishlangan chiroyli jimjimalar bor. Maqbaraning tashqi gumbazi yodgorlikning tashqi qiyofasi yanada salobatli bo'lishi uchun uning ustiga ikkinchi gumbaz o'rnatilgan.

Qayta tiklash ishlari Birinchi restavratsiya ishlarini temuriylar sulolasi vakillari amalga oshirgan bo'lsa, XVII asrdan boshlab Hindistonda boburiylar o'z ajdodlari Temur xotirasiga har yili maqbara binosini ta'mirlash uchun katta miqdorda mablag' jo'natgan. Masalan, 1621-yilda Boburiy Jahongir (1605—1627) Samarqandga kelib, 30 ming rupiy olib kelgan, shundan 5 ming rupiysi Amir Temur qabrini obod qilishga ajratilgan.

1916-yilda qabrlar ustidagi qabrtosh qayta qurilib, marmar pollar qayta ishlangan. 1950-yillarda tashqi gumbazlari va ustunlari qayta tiklangan.

1967-yilda Samarqand shahrining 2500 yillik tantanalariga tayyorgarlik munosabati bilan Sh. Rashidov tashabbusi ostida majmuada keng ko'lamli restavratsiya ishlari boshlangan.

Xulosa qilib aytish munkinki Go'ri Amir maqbarasi – bu nafaqat qabriston, balki Amir Temur qudrati, temuriylar davlati kuchi va o'zbek me'morchiligining buyuk ramzidir. U sharq me'morchiligining buyuk ramzidir. U sharq me'morchiligida uyg'unlik, ulug'vorlik va nafislik mujassam etgan. Bugungi kunda Go'ri Amir maqbarasi jahon madaniy merosining bebaho durdonasi sifatida e'zozlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. [Samarqand viloyati rasmiy sayti](#), 2013-02-18da [asl nusxadan](#) arxivlandi, qaraldi: 2013-01-15
2. Amriddin Berdimuradov. Gur-i Amir makbarasi, Toshkent, 1996, s.5-7
3. Г. Н. Матюшин. Археологический словарь, Учебное издание, М.: Просвещение, 1996 — 61-bet. [ISBN 5-09-004958-0](#).
4. Burton Audrey. [The Bukharans. A dynastic, diplomatic and commercial history 1550-1702](#). Palgrave Macmillan, 1997. [ISBN 0312173873](#).
5. М. Герасимова, К. Герасимова Михаил Герасимов: Издательство: М.: , с.. Я ищу лица. О восстановлении внешнего облика исторических лиц. М.: Наука, 2007 — 37—38-bet.